



## ISLOM IQTISODIYOTIDA IJTIMOY MOLIYA MUNOSABATLARINING MAQSADI VA VAZIFALARI

**Jiyanov O'ktam**

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi*

*ORCID: 0000-0001-7711-6659*

*[uktam.jiyanov87@gmail.com](mailto:uktam.jiyanov87@gmail.com)*

**Axmedova O'g'ilshod**

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi*

*ORCID: 0000-0002-2253-077X*

**Annotatsiya.** *Islom ijtimoiy moliyasi bugungi kunda nafaqat musulmon mamlakatlarda, balki musulmon bo'lmagan mamlakatlarda ham rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, Covid-19 pandemiyasidan keyin u o'zining muhim o'rniga ega bo'ldi. Mazkur maqolada ijtimoiy moliya va islom ijtimoiy moliyasi tushunchalari mohiyati ko'rib chiqilgan, shuningdek islom ijtimoiy moliyasining maqsadlari va vazifalari yoritib berilgan, jumladan, ishsizlik va qashshoqlikni kamaytirish, kam ta'minlangan guruhlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilashga yordam berish, taqsimlashda ijtimoiy adolatni amalga oshirish va iqtisodiyotni o'stirish. Tahlillar jamlanib, maqola so'nggida umumiy xulosalar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ijtimoiy moliya, islom ijtimoiy moliyasi.*

## ЦЕЛЬ И ОБЯЗАННОСТИ СОЦИАЛЬНО-ФИНАНСОВЫХ ОТНОШЕНИЙ В ИСЛАМСКОЙ ЭКОНОМИКЕ

**Джиянов Уктам**

*Международная исламская академия Узбекистана*

**Ахмедова Угилшод**

*Международная исламская академия Узбекистана*

**Аннотация.** *Сегодня исламское социальное финансирование развивается не только в мусульманских, но и в немусульманских странах. Особенно после пандемии Covid-19 он приобрел свое важное место. В данной статье рассматривается суть концепций социального финансирования и исламского социального финансирования, а также освещаются цели и задачи исламского социального финансирования, включая снижение безработицы и бедности, содействие улучшению социально-экономического положения малообеспеченных групп населения и реализацию социальной справедливости. в распределении и росте экономики. В конце статьи подведены итоги анализа и сделаны общие выводы.*

**Ключевые слова:** *социальные финансы, исламские социальные финансы.*

**PURPOSE AND DUTIES OF SOCIAL FINANCIAL RELATIONS IN ISLAMIC ECONOMY****Jiyanov Uktam***International Islamic Academy of Uzbekistan***Akhmedova Ugilshod***International Islamic Academy of Uzbekistan*

**Abstract.** Today, Islamic social finance is developing not only in Muslim countries, but also in non-Muslim countries. Especially after the Covid-19 pandemic, it gained its important place. This article examines the essence of the concepts of social finance and Islamic social finance, and also highlights the goals and objectives of Islamic social finance, including reducing unemployment and poverty, helping to improve the socio-economic condition of disadvantaged groups, and implementing social justice in distribution. and growing the economy. The analyzes are summarized and general conclusions are given at the end of the article.

**Key words:** social finance, Islamic social finance.

**Kirish.**

Islom ijtimoiy moliyasi ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan global maqsadlar majmuasi bo'lgan Barqaror rivojlanish maqsadlarini (SDGlar) ilgari surishda muhim rol o'ynaydi. Islom ijtimoiy moliyaisning SDGlar bilan integratsiyalashuvi barqaror rivojlanish va mas'uliyatli bank faoliyati tamoyillariga mos keladi. Ayniqsa, butun dunyoda Covid-19 pandemiyasidan keyingi "tuzalish" davrida ham islom ijtimoiy moliyasi muhim ahamiyat kasb etishi mumkinligi bir necha bor isbotlab ham berilgan edi.


Islom iqtisodiyotida ijtimoiy moliya munosabatlari iqtisodchilar, siyosatchilar va jamoatchilik e'tiborini tortgan muhim sohadir. So'nggi o'n yilliklarda tobora ko'proq mamlakatlar islom moliya tizimining tamoyillari va qadriyatlariga, xususan, uning faoliyatining ijtimoiy jihatlariga e'tibor berishni boshladilar. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, islom iqtisodida ijtimoiy moliya adolat, hamjihatlik va barqaror rivojlanishga erishish uchun asosiy vositaga aylanishi mumkin.

**Adabiyotlar sharhi.**

Dastab "ijtimoiy moliya" tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, u nisbatan yangi tushuncha bo'lishiga qaramay, uning ildizlarini ancha oldingi vaqtlarda ham ushratish mumkin. Ijtimoiy moliya deya atayotgan tizimimizning ko'p elementlari aslida VI-VII asrlardayoq islomiy moliya tizimi (Нуриев, 2015), shuningdek "Masihning kambag'al askarlari" va Sulaymon ibodatxonasi (1119-yilda salib yurishlari vaqtida asos solingan) tomonidan yaratilgan "Muqaddas tartib" tomonidan taklif qilingan va ishlatilgan (Rexhepi, 2016). Ijtimoiy moliyaning elementlarini ba'zi Yevropa mamlakatlarida ham uchragan, masalan, 1950-yillarda va 1970-yillarning boshlarida Fransiya ijtimoiy uy-joy qurilishiga ko'p sarmoya kiritgan. Bu davrda Yevropaning ba'zi iqtisodlari asosan Keynscha yondashuv (iqtisodiyotdagi jami xarajatlar va uning ishlab chiqarish, bandlik va inflyatsiyaga ta'siri haqidagi makroiqtisodiy nazariya) ta'sirida bo'lgan va ular ijtimoiy davlat modelidan foydalanganlar (Driant, 2012).

Bakerning fikriga ko'ra, ijtimoiy moliya deya jamiyat va atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatishga intiladigan tizimni atash mumkin (Baker va boshq., 2012).

Harji va Heblarning fikriga ko'ra esa, ijtimoiy moliyada iqtisodiy, ijtimoiy va/yoki ekologik daromad olishga qaratilgan vositalar va strategiyalarni qo'llashdir (Harji va Hebb, 2009). Chertok an'anaviy va ijtimoiy moliyani faqrlab shunday deydi (Chertok va boshq., 2008), an'anaviy moliya faqat moliyaviy daromadga qaratilgan spektrning bir tomonida joylashsa, notijorat moliya esa spektrning ijtimoiy daromad olishga qaratilgan ikkinchi tomonida joylashadi (1-rasm). Ijtimoiy moliya ham moliyaviy, ham ijtimoiy daromadni muvozanatlashtiruvchi o'rtada joylashadi.




1-rasm. An'anaviy moliyadan notijorat moliyaga (Tahiri-Jouti, 2022)

Baker va Nofsinger ijtimoiy moliyaga ijtimoiy bank, ta'sirli investitsiyalar (moliyaviy daromad bilan birga ma'lum ijtimoiy maqsadlarga ataylab yo'naltirilgan va ikkalasiga ham erishishlikni o'lchaydigan investitsiyalar) va mikromoliyani o'z ichiga oladi, deya ta'rif berishgan (Baker va boshq., 2012). Ijtimoiy banklar ijtimoiy ta'sir yaratishi kerak bo'lgan mahsulot va xizmatlarni taklif qiladigan muassasalardir. Shu o'rinda ba'zi yuqoridagi terminlarga to'xtaladigan bo'lsak:

Ta'sirli investitsiyalar (impact investing) - moliyaviy daromad bilan birga ma'lum ijtimoiy maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan va ikkalasiga ham erishishni o'lchaydigan investitsiyalar (Tahiri-Jouti, 2022).

Mikromoliyalash, ijtimoiy moliya kontekstida V.A.Rahman ta'rifi bilan aytganda (Rahman, 2010), kambag'allarning ehtiyojlarini qondirish va ularni asosiy moliyaviy tizimning bir qismiga aylantirish uchun moslashtirilgan xizmatlarni birlashtiradigan inklyuziv moliyaviy tizimlardir.



2-rasm. Islom ijtimoiy moliyasi qamrovi (Tahiri-Jouti, 2022)


Islom ijtimoiy moliyasiga (IIM) kelsak, u islom tamoyillariga asoslangan va kambag'al va kam ta'minlanganlarga yordam berish orqali farovon jamiyat yaratishga qaratilgan moliyaviy tizimdir (Cattelan, 2018). U jamiyatda ijtimoiy iqtisodiyotni kuchaytirishga qaratilgan (Kuanova va boshq., 2021). Islom ijtimoiy moliyasi qamrovini 2-rasmda ko'rish mumkin. IIM ham ijtimoiy manfaatlarga qaratilgan notijot moliyani hamda foyda olish uchun ijtimoiy yo'naltirilgan moliyani ham o'z ichiga oladi, ya'ni u ijtimoiy moliyadan ko'ra kengroq qamrovga ega.

### Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur ishimizda ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarning tizimli tahlili, ilmiy abstraktlash, guruhlashtirish, tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, statistik va iqtisodiy tahlil usullardan foydalanilgan.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Global miqyosda islom iqtisodiyoti, ayniqsa, rivojlanishning yanada barqaror va ijtimoiy yo'naltirilgan shakllariga intilishida diqqat markaziga aylandi. 2023-yilgi Islom moliyaviy hisobotiga ko'ra, islom moliya institutlarining global aktivlari so'nggi o'n yil ichida sezilarli o'sishni ko'rsatib, 2,5 trillion AQSh dollaridan oshdi. Bu o'sish islom moliyaviy mahsulotlari va vositalariga qiziqish ortganidan dalolat beradi.



**3-rasm. Dunyoda islom moliya institutlari aktivlarining o'sish dinamikasi (2010-2022, trln. AQSh dollarida) (ICD – LSEG, 2023)**

Biroq, aktivlarning ko'payishiga qaramay, jahon tajribasining muhim jihati shundaki, ijtimoiy moliya islom moliya tizimida tobora markaziy o'ringa aylanib bormoqda. Islom banklari va jamg'armalari ehtiyojmandlarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim va sog'liqni saqlashni ta'minlash, ekologik barqarorlikni ta'minlovchi loyihalarni moliyalashtirishga qaratilgan ijtimoiy dasturlarni faol rivojlantirmoqda.

Islom iqtisodiyotida ijtimoiy moliya munosabatlarining maqsadi:

– *Adolat va hamjihatlik (birdamlik)*. Islom iqtisodiyotida ijtimoiy moliya munosabatlarining markaziy maqsadlaridan biri adolat va hamjihatlikka erishishdir. Ko'pgina davlatlar iqtisodiy munosabatlarda islom tamoyillarini qo'llagan holda, ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish va moliyaviy resurslardan teng foydalanishni ta'minlashga intiladi. Bu borada jamiyatning barcha qatlamlari uchun teng imkoniyatlar yaratadigan kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash muhim element hisoblanadi.


Islom iqtisodiyotida ijtimoiy moliya resurslarning taqsimlanishi quyidagi 4-rasmda keltirilgan.

1-jadval


## Dunyo mamlakatlari byudjetlarida ijtimoiy dasturlarning ulushi (UN, 2022)

Mamlakat	Inson taraqqiyoti indeksi (2019)	Inson kapitali indeksi (2020)	Davlat ijtimoiy xarajatlari, YalMning foizi, so'nggi mavjud raqamlar	Aholi jon boshiga davlat ijtimoiy xarajatlari (dollar), so'nggi mavjud raqamlar
<b>Inson taraqqiyoti indeksi bo'yicha eng yaxshi 10 mamlakat</b>				
Norvegiya	0,957	0,771	25,3	15868,8
Irlandiya	0,955	0,792	13,4	11125
Shveysariya	0,955	0,756	16,7	11550,5
Gonking, Xitoyning maxsus ma'muriy hududi	0,949	0,812		
Islandiya	0,949	0,745	17,4	8896,8
Germaniya	0,947	0,751	25,9	13488,8
Shvetsiya	0,945	0,795	25,5	13736,8
Avstarliya	0,944	0,77	16,7	8571,5
Niderlandiya	0,944	0,789	16,1	9192,7
Daniya	0,94	0,755	28,3	16053,5
<b>Arab davlatlari</b>				
Tunis	0,74	0,516	23,4	691,5
Iordaniya	0,729	0,553	14,9	620,7
Misr	0,707	0,494	12,5	466,2
Iroq	0,674	0,407	22,2	1370,4
Livan	0,744	0,515	9,9	1103,5
Ummon	0,813	0,608	17,2	2644,5
Marokash	0,686	0,504	13,2	433,5

– *Risklarni taqsimlash.* Islom moliyasi ribo va maysir bilan bog'liq operatsiyalar man qilinadi. Shu sababi foyda va risk, bank va qarz oluvchi o'rtasida taqsimlanadigan Mudoraba va Mushoraka instrumentlari asosida moliyalashtirishni ta'minlovchi islom banklarining tobora ommalashib borayotganidan dalolat beradi.



4-rasm. Islom iqtisodiyotida ijtimoiy moliya resurslarning taqsimlanishi (ICD - LSEG, 2023)



**5-rasm. Mushoraka instrumenti asosida nobank tashkilotlarida moliyalashtirish (milliard Rpda) (Purnomo, 2024)**


*Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash.* Islom iqtisodiyotida ijtimoiy moliya munosabatlarining muhim maqsadlaridan biri tadbirkorlikni, ayniqsa, ijtimoiy taraqqiyotga hissa qo'shadigan sohalarda qo'llab-quvvatlashdir. Shu nuqtai nazardan, islom banklari kichik va o'rta biznesni (KO'B) moliyalashtirishda faol ishtirok etib, ularning o'sishi va rivojlanishiga hissa qo'shmoqda.

**2-jadval**

**2021-yil yakuni bo'yicha Turkiyadagi Ishtirokchi Bank (Islom bank)larning kichik va o'rta biznes kredit portfeli (Ozdemir, 2023)**

<b>Jami kredit portfeli (million TL)</b>	<b>335912</b>
<b>KO'B kredit portfeli (million TL)</b>	<b>99123</b>
Mikrofirmalarga berilgan kredit summasi	13309
Kichik korxonalariga berilgan kredit miqdori	35955
O'rta korxonalariga berilgan kredit miqdori	49859
<b>Umumiy kredit portfelidagi kichik va o'rta korxonalar ulushi</b>	<b>29,50%</b>
Mikrofirmalarning umumiy kredit portfelidagi ulushi	4%
Kichik korxonalarining umumiy kredit portfelidagi ulushi	10,70%
O'rta korxonalarining umumiy kredit portfelidagi ulushi	14,80%
<b>KO'B mijozlarining umumiy soni</b>	<b>91881</b>
Mikrokorxonalar mijozlarining umumiy soni	39169
Kichik korxonalar mijozlarining umumiy soni	36523
O'rta biznes mijozlarining umumiy soni	16189
<b>KO'B kreditlarining o'rtacha hajmi (TL)</b>	<b>1078818</b>
Mikrofirma kreditlarining o'rtacha hajmi	339777
Kichik korxonalar kreditlarining o'rtacha hajmi	984442
O'rta korxonalar kreditlarining o'rtacha hajmi	3079831

*- Ekologik barqarorlik.* Islom tamoyillariga muvofiq, ijtimoiy moliya ekologik barqarorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Islom moliya institutlari atrof-muhitga salbiy ta'sirlarni kamaytirish va barqaror ishlab chiqarish turlariga o'tishni qo'llab-quvvatlovchi loyihalarga faol investitsiya kiritmoqda.



6-rasm. Yashil va barqarorlik uchun sukuk emissiyasi (2017 - 2023 yil 3-chorak)  
(LSEG, 2023)

– *Ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish*: Islom iqtisodiyotida ijtimoiy moliya munosabatlarining asosiy maqsadlaridan biri ta’lim, sog’liqni saqlash, uy-joy va jamiyatning boshqa asosiy ehtiyojlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish va qo’llab-quvvatlashdir. Ushbu dasturlar jamiyatning barcha a’zolarining farovonligini ta’minlashga qaratilgan;

– *Ijtimoiy jamg’armalarni yaratish*: Ijtimoiy moliyalashtirish hisobidan yaratilgan ijtimoiy fondlar muhtojlarga yordam ko’rsatish uchun mo’ljallangan. Ushbu mablag’lar iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelganlarni qo’llab-quvvatlash uchun sug’urta mexanizmlari, xayr-ehsonlar va boshqa vositalarni o’z ichiga oladi;

– *Mikro loyihalarni moliyalashtirish*: Islom iqtisodiyotida ijtimoiy moliya munosabatlari kichik biznesni rivojlantirish va qashshoqlikni bartaraf etish vositasi sifatida mikromoliyani faol qo’llab-quvvatlaydi. Ushbu yondashuv an’anaviy moliya institutlariga kirish imkoniga ega bo’lmaganlar uchun moliyaviy resurslardan foydalanish imkonini beradi.

– *Investitsiya*: Islom iqtisodiyotidagi ijtimoiy moliya munosabatlarining maqsadi investitsiyalarni rivojlantirishdir. Islom moliya instrumentlari orqali shariat tamoyillariga muvofiq investitsiya kiritish imkoniyatini beradi, alkogol, tamaki va qimor kabi islom tamoyillariga zid bo’lgan tarmoqlar bundan mustasno.

– *Moliyaviy inklyuzivlikni ta’minlash*: Islom iqtisodiyotida ijtimoiy moliya munosabatlarining yana bir maqsadi moliyaviy inklyuzivlikni ta’minlashdir. Bu kichik tadbirkorlar, qishloq aholisi va kambag’allar kabi an’anaviy ravishda moliya tizimidan chetda qolganlarga moliyaviy xizmatlar va mahsulotlarni taqdim etishni o’z ichiga oladi.

– *Ijtimoiy farovonlikni rag’batlantirish*: Ijtimoiy moliya munosabatlari davlat farovonligi va barqaror rivojlanishni rag’batlantirishga qaratilgan. Islom iqtisodiyoti o’z vazifasini jamiyatning har bir a’zosi rivojlanishi va o’z salohiyatiga erisha oladigan barqaror va farovon ijtimoiy muhit yaratishda ko’radi.

Islom iqtisodiyotida ijtimoiy moliya munosabatlarining adolat, hamjihatlik va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda asosiy rol o’ynaydi. Jahon tajribasi islom moliya tizimining ta’siri kuchayib borayotganini tasdiqlaydi va statistik ma’lumotlar uning ijtimoiy farovonlik va iqtisodiy taraqqiyotga qo’shgan hissasini ko’rsatadi.

Islom iqtisodiyotida ijtimoiy moliya kichik va o’rta biznesni qo’llab-quvvatlash va ijtimoiy dasturlar yaratish orqali adolat hal qiladi. Islom iqtisodiyotida ijtimoiy moliya munosabatlari, shuningdek, risklarni taqsimlash va ekologik barqaror loyihalarda faol ishtirok etish orqali rivojlanishga yordam beradi.

### Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi ma'lumotlar va tahlillarni inobatga olgan holda shunday xulosaga kelishimiz mumkin, ijtimoiy moliya va islom ijtimoiy moliyasi bir-biriga yaqin tushunchalardir.

Ijtimoiy moliya iqtisodiy, ijtimoiy va bugungi kunda ekologik tomonlardan foyda olishga qaratilgan vositalar va strategiyalarni qo'llash deya umumlashtirishimiz mumkin. Islom ijtimoiy moliyasi esa islom tamoyillariga asoslangan va aholining kam ta'minlangan qismiga yordam berish orqali farovon jamiyat yaratishga qaratilgan moliyaviy tizimdir.

Islom ijtimoiy moliyasi adolat va birdamlik, risklarni taqsimlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ekologik barqarorlik, ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish, moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlash, ijtimoiy farovonlikni rag'batlantirish kabi maqsadlarni qo'llab-quvvatlaydi.

Islom iqtisodiyotida ijtimoiy moliya barqaror rivojlanishining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu moliyaviy tamoyillar va ijtimoiy mas'uliyat uyg'unligi qanchalik adolatli va to'g'ri bulsa, ijobiy ijtimoiy muhit yaratishi mumkinligini ko'rsatadi. Jahon tajribasi adolat va barqarorlik qadriyatlariga asoslangan islom iqtisodiyoti yanada adolatli va barqaror kelajak yaratishga intilayotgan boshqa tizimlar uchun namuna bo'lishi mumkinligini tasdiqlaydi.

### Adabiyotlar / Литература / Reference:

Baker, H. Kent and Nofsinger, John R. *Socially responsible finance and investing*. – 2012. - John Wiley & sons. -p. 528.

Baratov, G'iyosjon Muradulloevich "Innovatsion ta'lim tizimiga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish" // ORIENSS. 2022. №10.

Cattelan V. (ed.). *Islamic social finance: Entrepreneurship, cooperation and the sharing economy*. – Routledge, 2018.

Chertok M., Hamaoui J., Jamison E. *The funding gap* //Stanford Social Innovation Review. – 2008. – T. 6. – №. 2. – C. 44-52.

Driant J. C., Li M. *The ongoing transformation of social housing finance in France: Towards a self-financing system?* //International Journal of Housing Policy. – 2012. – T. 12. – №. 1. – C. 91-103.

Harji, K. and Hebb, T. *The quest for blended value returns: Investor perspectives on social finance in Canada*. - Carleton Centre for Community Innovation, Ottawa, Canada. – 2009.

ICD – LSEG Islamic Finance Development Report 2023: Navigating Uncertainty, 2023

Impact S., TASKFORCE I. *Impact investment: The invisible heart of markets*. – 2014.

Kuanova L. A., Sagiyeva R., Shirazi N. S. *Islamic social finance: a literature review and future research directions* //Journal of Islamic Accounting and Business Research. – 2021. – T. 12. – №. 5. – C. 707-728.

LSEG. *Green and sustainability sukuk update 2023: financing a sustainable future*

Ozdemir M., Savasan F., Ulev S. *Leveraging financial inclusion through Islamic microfinance: A new model proposal for participation banks in Turkiye* //Borsa Istanbul Review. – 2023. – T. 23. – №. 3. – C. 709-722.

Purnomo B. S., Nasim A., Suryadi E. *Mudharabah and Musyarakah Financing in Indonesian Islamic Banking Practices: Is It Equity or Debt Financing?* //Islamic Research. – 2024. – T. 7. – №. 1. – C. 14-22. 2

Rahman W. A. A. *An overview of microfinance: History and evolution, definition and practice* //Ahfad Journal. – 2010. – T. 27. – №. 2. – C. 3-21.

Rexhepi G. *The architecture of social finance* //Routledge handbook of social and sustainable finance. – 2016. – C. 35-49

Tahiri-Jouti A. *Financial Instruments and Cash Waqf* //Springer Books. – 2022. – 242 pages.

UN. *Social Expenditure Monitor for Arab States: Toward Making Budgets more Equitable, Efficient and Effective to Achieve the SDGs, 2022*

Нуриев Б. Д. *Запят в классическом мусульманском праве* //Вестник Костромского государственного университета. – 2015. – T. 21. – №. 3. – C. 178-182.